



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI**

"Fuqarolik sifatleri"

Umumiy o'rta ta'lim maktab 4-sinf o'quvchilari uchun mo'ljallangan dars materiallari



Fuqarolik sifatleri nima?

Har bir inson jamiyatning a'zosi hisoblanadi. Inson jamiyatda yashar ekan, u nafaqat o'z manfaatini, balki boshqalarning huquq va manfaatlarini ham hurmat qilishi kerak.

Mas'uliyat

Jamiyatda mas'uliyat bilan yashash va o'z vazifalarini bajarish.

Qonunga rioya

Qonunlar va qoidalarga amal qilish — tartibli jamiyat asosi.

Adolat

Adolatli bo'lish va boshqalarning huquqini hurmat qilish.



Maktab davri inson hayotida fuqarolik sifatleri shakllanadigan **muhim bosqich**dir. O'quvchilar maktabda nafaqat bilim oladi, balki jamoada yashashni ham o'rganadi.

1. Qobiliyatlarni rivojlantiramiz

Qobiliyat — insonning muayyan ishni yaxshi bajara olish imkoniyati bo'lib, u mehnat va mashqlar orqali rivojlanadi.

Har bir bolada turli xil qobiliyatlar bo'ladi:

- Kimdir tez o'qiydi
- Kimdir yaxshi chizadi
- Boshqasi jamoada ishlashni yoqtiradi
- Kimdir sportga qiziqadi
- Kimdir tez hisoblaydi



Qobiliyatlar o'z-o'zidan kuchaymaydi — ularni **doimiy harakat, intilish va mehnat** orqali takomillashtirish kerak!

Haqiqiy fuqarolik fazilati

O'z qobiliyatini **halol mehnat** bilan rivojlantirish va boshqalarga nisbatan adolatli bo'lish.

Noto'g'ri yo'l

Tanish-bilishchilik orqali natijaga erishmoqchi bo'lish — bu adolat mezonini buzadi va mehnat qilgan insonni qadrsizlantiradi.



Amaliy misol: olimpiada saralashi

Maktabda fan olimpiadasiga saralash bo'lib o'tdi. Barcha o'quvchilar test topshirdi. **Aziza** uzoq vaqt tayyorgarlik ko'rgan va ko'p mashq qilgan edi — sinfdoshlar uning yuqori natija ko'rsatishini bilardi.

Nima bo'ldi?

Saralash natijasiga ko'ra **Kamron** tanlandi — u mas'ul shaxslardan birining yaqini bo'lgani uchun uning natijasiga "alohida e'tibor" qaratilgan.

Bu holatdan so'ng ayrim o'quvchilar: *"Mehnat qilish shart emas ekan"* va *"Tanish-bilishing bo'lsa, bas"* degan fikrga kela boshladi.

Muhokama savollari:

1. Kim o'z qobiliyatini chinakamiga rivojlantirgan?
2. Qanday qaror adolatli bo'lar edi?
3. Nega tanish-bilishchilik qobiliyatni qadrsizlantiradi?
4. Bu holat boshqa o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
5. Agar shunday holatlar ko'paysa, bolalarda qanday odat shakllanadi?
6. Siz bu vaziyatda qanday to'g'ri qarorni qo'llab-quvvatlagan bo'lardingiz?

2. Xavfli vaziyatlarda qanday harakat qilish kerak?

Xavfli vaziyat — bu insonning hayoti, sog'lig'i yoki huquqlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan holatdir. Bunday vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish juda muhim.



Vaziyatni to'g'ri baholash

Inson xavfni anglashi va nima sodir bo'layotganini aniq tushunishi kerak.



To'g'ri yo'lni tanlash

Qo'rquv yoki bosim ostida emas, balki qonuniy va adolatli yo'lni tanlash.



Sukut saqlash xavfi

Xavfli vaziyatda jim turish ham noto'g'ri qaror — bu adolatsizlikning davom etishiga imkon yaratadi.



Hayotda insonlar gohida qo'rquv, bosim yoki boshqalar ta'sirida noto'g'ri qaror qabul qiladi. **Fuqarolik pozitsiyasi** — to'g'ri va qonuniy yo'lni tanlashda namoyon bo'ladi.

Amaliy misol: Maktabda guvoh bo'lish

Sinfdoshingiz maktab hududida boshqa bolaga tegishli buyumni yashirincha olib qo'ydi. Bu holatga siz va yana ikki nafar o'quvchi guvoh bo'ldingiz.

Bosim va maslahatlar

O'sha o'quvchi sizga: *"Hech kimga aytma, buni qaytarmayman"* dedi.


Boshqa o'quvchilar esa: *"Aralashma, o'zingga muammo orttirma"* deb maslahat berishdi.

Muhokama savollari:

1. Bu vaziyatni xavfli deb hisoblash mumkinmi? Nima uchun?
2. Nega ba'zi bolalar jim turishni afzal ko'radi?
3. Bu holatda jim turish to'g'rimi yoki noto'g'ri?
4. Agar bunday xatti-harakatlarga chek qo'yilmasa, bu nimalarga olib kelishi mumkin?
5. Qanday qilib to'g'ri va xavfsiz qaror qabul qilish mumkin?
6. Siz bu vaziyatda qanday yo'l tutgan bo'lardingiz?



3. Huquq va majburiyatlarni to'g'ri tushunish



Bu ikki tushuncha bir-biri bilan chambarchas bog'liq.
Faqat huquqni bilib, majburiyatni bajarmaslik adolatsizlikka olib keladi.

Muvozanat buzilganda...

- Adolat yo'qoladi
- Boshqalarga zarar yetadi
- Jamoada norozilik paydo bo'ladi

Fuqarolik pozitsiyasi

O'z huquqini bilish bilan birga, o'z majburiyatini ham ado etish — mana shu haqiqiy fuqarolik pozitsiyasidir.

Amaliy misol: sinfda tartib

Vaziyat:

Sinfdagi ba'zi o'quvchilar darsda tinchlik saqlanishini talab qiladi, lekin o'zlari suhbatlashib, boshqalarga xalaqit beradi.

O'qituvchi bu holatga chek qo'yish uchun ularni ogohlantirdi. Lekin ayrim o'quvchilar:

| *"Bu bizning huquqimiz" — deya o'zini oqlashga urindi.*



Bu — huquqni noto'g'ri tushunishning yorqin namunasidir. Boshqalarning tinchlikda o'qish huquqi ham bor!

Muhokama savollari:

1. Bu vaziyatda huquq va majburiyat qay tarzda buzilgan?
2. Nega faqat o'z huquqini talab qilish noto'g'ri?
3. Bu holat boshqa o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatadi?
4. Agar hamma shunday qilsa, sinfda qanday holat yuzaga keladi?
5. Huquq va majburiyatni qanday qilib to'g'ri muvozanatda saqlash mumkin?
6. Siz bu vaziyatda qanday qaror qabul qilgan bo'lardingiz?

4. Navbatda turish madaniyati

Navbatda turish madaniyati — bu odamlarning xizmat yoki imkoniyatdan foydalanishda tartib va adolatga amal qilishi, bir-birini hurmat qilib, o'z o'rnini saqlashidir.

Navbat buzilganda...

- Kimdir boshqalardan oldinga o'tib ketadi
- Kimdir o'zini ustun qo'yadi
- Ba'zilarining haqqi poymol bo'ladi

Bu arziyas holatdek tuyulsa-da, aslida **adolatsizlikning boshlanishi** hisoblanadi.

Maktab oshxonasidagi holat


Tanaffus paytida bir nechta o'quvchi navbatni buzib, oldinga o'tib oldi. Ular: *"Biz shoshyapmiz"* deb o'z xatti-harakatini oqlamoqchi bo'ldi.

Navbatda turgan boshqa o'quvchilar esa:

- Uzoq vaqt kutib qoldi
- Ba'zilar ovqatlanishga ulguradi



Agar inson navbat buzishni **odat qilsa**, keyinchalik boshqa sohalarida ham qoidalarini buzishga moyil bo'lishi mumkin.



Navbat Madaniyati: Muhokama

1 Navbatni buzish nima uchun adolatsizlik sanaladi?

Navbatda turgan har bir kishining o'z o'rni va haqqi bor. Uni buzish boshqalarning haqqini poymol qilishdir.

2 "Shoshyapman" deyish asosli sabab bo'la oladimi?

Yo'q — navbatda turgan boshqalar ham shoshilishi mumkin. Hamma o'zini ustun qo'ysa, tartib yo'qoladi.

3 Kichik qoidabuzarlik kattaroqlariga yo'l ochadimi?

Ha — kichik qoidalarni buzishga ko'nikkan inson keyinchalik kattaroq qoidalarni ham buzishga tayyor bo'ladi.

4 To'g'ri xulq-atvor qanday bo'lishi kerak?

Navbatga rioya qilish — bu boshqalarning haqqini hurmat qilish va adolatni ta'minlashdir.

Xulosa: Fuqarolik Fazilatlari

Fuqarolik fazilatlari insonga jamiyatning mas'uliyatli va adolatli a'zosi bo'lib kamol topishida yordam beradi.



O'z Ustida Ishlash

Bilimga intilish va qobiliyatni halol mehnat bilan rivojlantirish.



Huquq va Majburiyat

Huquq va majburiyatlarni anglash hamda muvozanatda saqlash.



Navbat Madaniyati

O'zgaralar haqqini hurmat qilish va tartibga amal qilish.



Adolatli Jamiyat

Farzandlar yoshligidanoq adolat, halollik va mas'uliyatni o'rgansa — kelajakda korrupsiyadan xoli jamiyat quriladi.

Yoshligidanoq adolat, halollik va mas'uliyat kabi tuyg'ularni o'rgangan farzandlar kelajakda **korrupsiyadan xoli, barqaror jamiyat** qurishga o'z hissasini qo'shadi.

